



**AL XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI**

**102- TURIZM YO'NALISHI TOLIBI**

**YULDASHOV JAHONGIRNING "TURIZM" FANIDAN YOZGAN  
"MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY  
MUZEYLARNI TUTGAN O'RNINI O'RGANISHNING NAZARIY  
USLUBIY MASALALARI" MAVZUSIDA YOZGAN**

# **REFERATI**

**TOPSHIRDI: YULDASHOV J.**

**QABUL QILDI: RO'ZMETOV B.**

**URGANCH 2015**

# **Mintaqa turizmini rivojlantirishda tarixiy muzeylarni tutgan o‘rnini o‘rganishning nazariy uslubiy masalalari.**

REJA:

## **I. Kirish.**

## **II. Asosiy qism:**

1.1. Mustaqillik sharoitida muzeylar va muzey tarmog‘ining rivojlanish muammolari.

1.2. Mintaqa turizmini rivojlantirishda tarixiy-madaniy yodgorliklarning tutgan o‘rni va ahamiyati

1.3. Mintaqa turizmini rivojlantirishda tarixiy muzeylarni tashkil qilishning tashkiliy - huquqiy va iqtisodiy jihatlari.

## **III. Xulosa.**

## **IV. Foydalanilgan adabiyotlar.**

## KIRISH

Mamlakatimizda tarixiy obida va madaniy yodgorliklar bisyor. Ular xalqimizning o'tmishini o'zida mujassam etgan milliy qadriyatlarimiz namunasi, xalqimizning bebaho mulkidir. Yurtimizdagi yuzlab ko'hna va betakror obidalar asrlar mobaynida jahon ahlini lol qoldirib kelmoqda. Shu bois ularni o'rganish, muhofaza qilish, kelajak avlodga bus-butun yetkazish muhim vazifalardan sanaladi.

Bu borada yurtimizda keng-ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Tarixiy va madaniy yodgorliklar O'zbekiston Respublikasining «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi qonuni bilan huquqiy muhofazaga olingan. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholiga xizmat ko'rsatuvchi sohalarning o'zni va roli g'oyat sezilarli bo'lib, bunda turizmning ahamiyati boshqa xizmat ko'rsatish sohalariga qaraganda yuqori sur'atlar bilan rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda O'zbekistonda turizmni rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarga juda ham katta e'tibor berilib, uning turistik salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari shakllanmoqda va qaror topmoqda.

Respublikada zamonaviy turizm sanoatini rivojlantirish, keng ko'lamda xorijiy sayyohlarni jalb etish, shu bilan birga xalqaro ahamiyatiga ega bo'lgan "Buyuk ipak yo'lini" qayta tiklash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida»<sup>1</sup>gi Farmoni, "Buyuk ipak yo'li"da joylashgan qadimiy shaharlardagi mavjud madaniy yodgorliklar, tarixiy, arxeologik va me'moriy obidalarni qayta tiklash va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha "Meros" milliy dasturi qabul qilindi.

O'zbekiston mintaqalarida (xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz shaharlarida) saqlanayotgan har bir davr va sivilizatsiyaning o'ziga xos 400 dan ortiq me'moriy va tarixiy-madaniy obidalar, arxeologik yodgorliklari YUNESKO ning

---

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1995 yil 2 iyundagi PF -1162 farmoni

butunjahon madaniy meroslar ro'yxatiga olingan. Hozirda shu ro'yxatga kiritish uchun 32 ta madaniy meros ob'ektlari nominatsiyasi taqdim etilgan. Bugungi kunda madaniy meros ob'ektlaridan 300 dan ko'prog'i sayyohlik yo'nalishlariga kiritilib, O'zbekistonga tashrif buyurayotgan turistlarga namoyish etilmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, mamlakatimiz mintaqalarida yetarlicha turistik imkoniyatlar mavjud va ularni o'rganish, tadqiq etish bevosita ishning dolzarbligini ta'minlaydi.

Shunga ko'ra mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab, O'zbekistonda ham turizmni shakllantirish va qaror toptirishga katta ahamiyat berilib, bu jarayonda turistik resurslardan, ayniqsa mintaqa xududlarida mavjud bo'lgan salohiyatdan samarali foydalanish yo'l – yo'riqlari qidirilmoqda va uning imkoniyatlari o'rganilmoqda. Bu shu narsada namoyon bo'ladiki, O'zbekiston mintaqalarida, xususan Xorazm viloyatida turizm resurslari salohiyatini yuqoriligi, ya'ni bu erda madaniy – tarixiy yodgorliklarning mavjudligi, boy tarixiy merosi, diniy, ekologik, ilmiy, hamda Xorazmning o'ziga xos an'analari va boshqa hislatlari turizmni rivojlanishini zamon talablari asosida yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Ayniqsa madaniy – tarixiy turistik resurslar salohiyatidan samarali foydalanish iqtisodiy jarayonning faol kechishiga sababchi bo'lib, uning imkoniyatlari bu mintaqada yetarli darajada o'rganilmagan.

Shuning uchun ham keyingi yillarda O'zbekistonda turizmni rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarga juda ham katta e'tibor berilib, uning turistik salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari shakllanmoqda va qaror topmoqda.

## **1.1. Mustaqillik sharoitida muzeylar va muzey tarmog'ining rivojlanish muammolari.**

Mustaqillik yillarida fan, san'at va madaniyatni ravnaq topishi uchun barcha shart-sharoitlarni vujudga keltirildi. O'zbek xalqining moddiy-ma'naviy yodgorliklarini saqlab qolib, yangi muzeylar tashkil etish to'g'risida alohida g'amxo'rlik ko'rsatildi. Xalqimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vositalari orasida muzeylar alohida o'rin tutadi. Muzey tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va tashviq qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-marifiy maskan bo'lib, o'zining ekspozitsiya va ko'rgazmalari vositasida tashviqot va tarbiyaviy ishlarni bajaradi. Muzeylar xalqlarni tabiat yodgorliklari, madaniyat va san'at tarixi bilan tanishtirish bilan birga o'tmish asrlar hamda bugungi kun ma'naviy boyliklarini o'rganadi va kelgusi avlodlar uchun saqlaydi. Respublikamiz muzeylari bugungi kunda juda katta ma'naviy-moddiy boyligimiz hisoblanadi.

Mustaqil vatanimizda milliy o'zlikni tiklashga alohida e'tibor berilmoqda. Zero, bizning yurt ajdodlarining tarixda ko'rsatgan buyuk xizmatlarini holis o'rganish va targ'ib etish alohida ahamiyat kasb etadi. Sovet davrida faqat «qizil impyeriya» mafkurasiga xizmat qilgan muzeylar endilikda milliy o'zlikni anglashga xizmat qilishi lozim. Mustaqillik davrida muzeylar ishiga alohida e'tibor berilmoqda. Buning bir qancha omillari bor:

Birinchi, mustamlakachilik yillarida ongimizdan o'chirib tashlangan milliy tuyg'ularni qayta tiklash;

Ikkinchi, milliy g'urur, milliy ongni yuksaltirish uchun unutilgan tariximizni qayta tiklash;

Uchinchi, ajdodlar hurmatini joyiga qo'yish, yosh avlodni ajdodlar nomi va merosi bilan faxrlanishga o'rgatish, milliy gururini yuksaltirish, buyuk an'analarning davomchisi etib tarbiyalash;

To‘rtinchidan, milliy qadriyatlarimiz bizga demokratik, huquqiy qudratli O‘zbekiston davlatini barpo etish uchun «O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat» g‘oyasini ro‘yobga chiqarish uchun kerak;

Beshinchidan, milliy qadriyatlarimiz mamlakatimizning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashi, kelgusi avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish uchun kerak. Ushbu yo‘nalishlarga Prezidentimiz asarlarida qayta—qayta to‘xtalib o‘tilmoqda.<sup>2</sup>

Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekistonda fanning turli sohalarini qamrab olgan ilmiy—tadqiqot muassasalarining keng tarmog‘i vujudga keldi. 1943 yil respublika territoriyasida 19 ta ilmiy tadqiqot instituti, 23 ta turli ilmiy stansiya, 2 ta rasadxona, 11 ta muzey va 6 ta turli ilmiy—tadqiqot muassasasi mavjud edi.

SSSR ning 1943 yil 27 sentabrdagi «O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasini tashkil etish haqida» qabul qilgan qaroridan so‘ng boshqa institutlar qatori Tarix muzeyi ham ilmiy — tadqiqot va siyosiy — ma‘rifiy ishlarni olib boruvchi markaziy muzey sifatida San‘at muzeyidan ajratilib O‘zSSR FA O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi nomi ostida FA tarkibiga kiritildi. O‘z FA tarkibiga Tabiat muzeyi ham kiritildi. SHunday qilib, respublikaning bu muassasalari faoliyatida yangi muhim sahifa ochildi..<sup>3</sup> Quyidagi raqamlar muzeylarning tobora rivojlanib, malakali kadrlar bilan mustahkamlanib borayotganligini yaqqol ko‘rsatib turibdi, 1973 yili O‘zbekistonda turli yo‘nalishdagi 30 ta muzey shu jumladan, 4 tarixiy, 4 memorial va 15 o‘lkashunoslik muzeyi bo‘lgan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 10 ta, Samarqand va Farg‘onada 5 tadan, Andijonda 4 ta muzey ish olib. borgan. 1980 yilga kelib esa respublikada muzeylar soni 33 taga yetdi, tomoshabinlar soni ham 3,7 mln. kishiga ko‘paydi.

Keyingi yillarda ekspozitsiyaning barcha bo‘limlari to‘ldirilib kengaytirildi. Natijada 1954 yil kadim zamonlardan boshlab urush yakuniga

---

<sup>2</sup> www.uzreport.uz

<sup>3</sup>.Abdullayev “Muzeyshunoslik va Arxivshunoslik” Toshkent 2008-y

qadar bo'lgan O'zbekiston tarixini izchil ifodalovchi ekspozitsiya bunyodga keldi. O'zbekistondagi ko'pchilik muzeylar 1946 —1953 yillarda ko'rgazma tipidagi ekspozitsiyalar yaratish yo'lidan bordi.

O'zbekiston Madaniyat vazirligi madaniy — ma'rifiy muassasalari Bosh boshqarmasi huzurida muzeylar ishini koordinatsiyalash bo'yicha doimiy harakatdagi metodik seminar tashkil etildi.

1959 yil Chirchiq, 1960 yili esa Angren shahar o'lkashunoslik muzeyi, keyingi yillarda yana bir qator shahar va rayon o'lkashunoslik muzeylari tashkil etildi. KPSS MK 1964 yil 12 mayda «Muzeylarning mehnatkashlarni kommunistik ruhda tarbiyalash sohasidagi rolini oshirish to'g'risida» qaror qabul qildi.

1973 yili O'zbekistonda turli yo'nalishdagi 30 ta muzey, shu jumladan 4 ta tarixiy, 4 ta memorial va 15 ta o'lkashunoslik muzeyi bo'lgan. Toshkent shahri va viloyatida 10 ta Samarqand va Farg'onada 5 tadan, Andijonda 4 ta muzey ish olib borgan. 1980 yilga kelib respublikada muzeylar soni 33 taga yetdi.

1991 yilda 31 avgustda o'zbek xalqi uzoq vaqtlardan beri orziqib kutgan Mustaqillikka erishdi. Hayotimizning barcha sohalari kabi muzeylar faoliyatida ham katta tarixiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 21 aprel qaroriga muvofiq O'zbekiston tarixi davlat muzeyi qayta tashkil etildi. Mohiyat e'tibori bilan qaralganda tom ma'nodagi zamonaviy va milliy muzeyga aynan shu sanada asos solindi. Hozirgi kunda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi eng yirik ilmiy ma'rifiy markazlardan hisoblanib, uning jamg'armasida 250 mingga yaqin eksponat mavjud. Ular orasida numizmatika, arxeologiya, tangashunoslik va etnografiyaga oid ko'plab qimmatli jamlamalar bor<sup>4</sup>.

Istiqlol sharofati bilan O'zbekistonda tarixiy merosimizni o'rganishga va madaniyat sohasiga katta e'tibor berilmoqda. Bu sohada muzeylarga alohida o'rin

---

<sup>4</sup> T.Abdullayev "Muzeyshunoslik va Arxivshunoslik"91-bet Toshkent 2008-y

ajratilgan. 1994-yil 23-dekabrda Vazirlar Mahkamasi “Respublika muzeylar faoliyatini yaxshilash chora tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi, 1998- yil 12 -yanvarida esa O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonga imzo chekdi. Bu g‘oyat muhim ikkita hujjat O‘zbekistonda o‘tmishning buyuk merosiga alohida ahamiyat berilayotganini tasdiqlaydi<sup>5</sup>.

Bugungi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan muzeylar soni O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari boshqarmasi tizimida turli sohalar bo‘yicha 98 ta, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tizimida 4 ta, O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi tizimida 4 ta, boshqa vazirlik va idoralar tizimida 7 ta muzey mavjud bo‘lib, bular o‘lkashunoslik, badiiy, memorial, adabiy-memorial, adabiy, tabiiy ilmiy muzeylardir.<sup>6</sup>

Shuningdek respublikadagi mavjud 3 ta muzey qo‘riqxonada Markaziy Osiyoning qadimiy shaharlarida joylashgan. Bular Samarqand Davlat muzey qo‘riqxonasi, Buxoro Davlat muzey qo‘riqxonasi va Xivadagi “Ichon-Qal’a” davlat muzey qo‘riqxonalaridir. Tizimda, shuningdek, tasviriy va xalq amaliy san’atining nodir namunalari saqlanayotgan Davlat san’at muzeyi, Respublika xalq amaliy muzeyi hamda I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston Davlat san’at muzeyi ham faoliyat ko‘rsatmoqda<sup>7</sup>.

Hozirgi zamon muzeylari madaniy-tarixiy va tabiiy ilmiy qadriyatlarni mushohada qilishga mo‘ljallangan ijtimoiy axborot institutini o‘zida namoyon etadi. Ular muzey ashyolarini axborot vositasida muhofaza qilish, to‘plash va tarqatish, jamiyatning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan, ixtisoslashtirilgan madaniy-ma’rifiy muassasalar hisoblanadi. Muzeylar nafaqat tabiat hamda jamiyatning noyob va xilma-xil ashyolari xazinasi, balki muhim ilmiy, ma’rifiy-tarbiyaviy markazlari hamdir. O‘zbekiston o‘z fuqarolari, xususan yoshlarning o‘tmish tarixining ijobiy voqealari bo‘yicha bilimlarini ko‘paytirish,

---

<sup>5</sup> T.Abdullayev “Muzeyshunoslik va Arxivshunoslik”106-bet Toshkent 2008-y

<sup>6</sup> „Muzey -xalq tarixi ko‘zguisi” Toshkent 20011-y

<sup>7</sup> T.Abdullayev “Muzeyshunoslik va Arxivshunoslik”109-bet Toshkent 2008-y



ularida vatanparvarlik, Ona Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ularini kamol toptirishga katta ahamiyat bermoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, bu tabarruk tuyg'u yo'lchi yulduz, ishonchli kompas bo'lib xizmat qiladi. Tarixni bilish odamni ma'nan boy, kuchli va insonparvar qiladi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda respublika poytaxti, viloyat va tuman markazlarida tarixiy yo'nalishdagi qator yangi muzeylar tashkil etildi, eskilari ta'mirlandi, ekspozitsiyalari tubdan yangilanib, boyitildi. Zamonaviy muzeylar

mazmuni, asrlar davomida ijtimoiy axborotni to'plash va muhofaza qilish, muzey ashyolari vositasida bilim, an'ana, tasavvur va hissiyotlarni o'zlashtirish va yangi avlodga uzatish muammolari e'tiborni o'ziga jalb etmoqda.

Muzeylardagi ilmiy tadqiqotlar natijalari kolleksiya, ekspozitsiyalarni konservatsiyalash, ta'mirlash, saqlash, muhofaza qilish, tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish, shuningdek, muzey faoliyatining boshqa turlari darajasini aniqlaydi. Respublika tarixiy muzeylarida saqlanayotgan eng boy jamg'arma to'plamlari: arxeologiya, etnografiya, numizmatika, moddiy va ma'naviy madaniyat tarixi, harbiy tarix geraldika, epigrafika kabi fanlardagi tadqiqotlar uchun ulkan baza hisoblanadi. Zero, tarixiy muzeylardagi ilmiy tadqiqot faoliyati badiiy va axloqiy qiymatga ega yangi tarixiy ma'lumotlar olish manbai sifatida muzey ashyolarini o'rganish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Muzeylarning yana bir muhim jihati, ularning yirik tarixiy shaxslar yoki voqea-hodisalarni o'rganish uchun barcha ma'lumotlar mavjud bo'lgan yagona yoki asosiy markaz ekanligidir. Ularni o'rganish ulkan ilmiy va g'oyaviy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Muzey materiallarini monografiya, ilmiy asarlar tarzida va ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib etish xalqimizning tarixiy ongini boyitishga, ularida faxr va vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda yordam beradi. Fan va texnika taraqqiyoti ilg'or yutuqlarining boshqa sohalar qatori muzey ishiga ham kirib kelishi tabiiy hol bo'libgina qolmasdan, hayotiy zaruriyat hamdir.

Xususan, 1990 — yillarda kompyuterlardan muzeyshunoslikda foydalanish, soha ma'lumot tizimini shakllantirish axborotni to'laqonli etkazish imkoniyatlarini

kengaytirdi. Muzei muassasalari yagona tarmog'ining yaratilishi muzei fondlarini hujjatlashtirishda ko'pgina qulayliklarni tug'dirdi. Jumladan, eksponatlarning tasviri raqamli fotokamera orqali bevosita kompyuterga kiritilmoqda. Ularning tahlili va boshqa ma'lumotlar ilova qilinib, ehtiyoj tug'ilganida mutaxassislar tomonidan qo'shimcha va tuzatishlar kiritiladi. Bu tadbir muzei ishida doimiy harakatda bo'lgan katalog va kartotekaning sifatini keskin yaxshilashni ta'minlaydi. Internet tarmog'ining joriy tizimi esa mazkur jarayonni xalqaro miqyosda faollashtirib yubordi.

Endilikda undagi «Muzeilar», «Madaniyat» bo'limlariga kirib, dunyoning xohlagan muzeini «tomosha» qilish, muzeilar haqida umumiy ma'lumotlardan tashqari fond eksponati, yangilik, maxsus tadbir va ilmiy anjumanlar haqida, sohaning mutaxassis xodimlari manzili, ularning elektron pochталari va boshqa umumiy ma'lumotlarni olish mumkin. Internet tarmog'ida ikki yarim milliondan ortiq muzei eksponatining suratlari aks ettirilgan kartoteka tizimi mavjud. O'zbekiston muzeilari ham internetda o'zlarining saytlarini yaratmoqda. Jumladan, Buxoro davlat me'moriy-badiiy muzei qo'riqxonasida muzei xodimlarini shaxsiy kompyuter texnikasi bilan ta'minlash masalasi hal etilmoqda. Muzeilar internet tarmog'iga ulanish, sayt yaratish va ma'lumotlar bazasini barpo etish ustida ma'lum ijobiy ishlar amalga oshirildi. Ilk qadam sifatida muzei fondidagi qo'lyozmalar to'plamini elektron lazer diskiga ko'chirish ishlari boshlab yuborildi. Lekin amalda respublika muzeilarida bu ishlar ancha sust bormoqda. Ma'lumki, muzeilarning asosiy vazifasi ashyolarni to'plash, saqlash va namoyish etishdan iborat. Bugungi kunda muzeilar zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'z eksponatlarining saqlanishini ta'minlashlari mumkin. Zero, aniq hisobga olish muzei boyliklarini ishonchli saqlash va ularga egalik qilish huquqini kafolatlaydi. Bugungi kunda tarixchi, san'atshunos, muzeyshunos, tadqiqotchilar muzei boyliklarini keng qamrovli ilmiy tadqiq etishda ayrim muammolarga duch kelmoqdalar. Avvalo yirik muzeilarda joriy etilgan tartib-qoidalar chetdan kelgan mutaxassislar va muzei ma'muriyati orasida kelishmovchiliklarga olib kelmoqda. Muammoning negizi pullik xizmat turini taklif etishdan iborat bo'lmoqda. Fikrimizcha, respublikaning ilmiy muassasalari xodimlariga madaniy boyliklarni o'rganishlari uchun sharoit yaratilishi

lozim. Sababi, ularga bu xildagi tadqiqotlari uchun davlat budjetidan qo‘shimcha mablag‘ ajratilmaydi.

Qolaversa, bunday tadqiqotlar O‘zbekistonning ilmiy, ma’naviy-madaniy taraqqiyotini, muzeylar manfaatini ko‘zlab amalga oshiriladi. Yuqorida keltirilgan sabablarga ko‘ra, O‘zbekistondagi muzeylar fondining 70 foizi o‘zining fundamental tadqiqotini kutib yotibdi. Kutubxonalarda mavjud nashr etilgan asarlar esa ularning 10 foizini yoritadi, xolos. Bugungi kunda dunyodagi deyarli barcha nufuzli muzeylar internet tarmog‘i orqali uzluksiz chiqishlar qilib, o‘z saytlarini muntazam yangi axborotlar bilan to‘ldirib bormoqda. Muzeylarda elektron axborot tizimining joriy etilishi, unda namoyish qilinadigan saytlarning shakli, tartibi, ko‘rinishlari, tuzilishi va sohaning boshqa masalalariga bag‘ishlab qator ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazilmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, muzeylarni qo‘llab-quvvatlash respublika «O‘zbekmuzey» jamg‘armasi qoshida muzeylar uchun elektron dasturlar yaratuvchi mutaxassislardan iborat markaz tashkil etish kun tartibidagi dolzarb masaladir. Aynan shu markaz orqali O‘zbekiston muzeylarida ma’lumot tarqatish va saytlar yaratishning yagona tizimini joriy qilish mumkin. Muzeylar aholining madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun aholining keng qatlamlari ularda saqlanayotgan ashyoviy boyliklarni bilishi, muzeylarning tadbirlaridan xabardor bo‘lishlari kerak. Saqlanayotgan osori-atiqalar, tashkil qilinayotgan tadbir, ko‘rgazmalar haqidagi axborotni aholiga etkazishda zamonaviy marketingning o‘rni beqiyosdir. Unga binoan muzeyga bormoqchi bo‘lgan kishi oldindan unga nima taklif etilishini bilmog‘i lozim. Muzey marketingining majburiy sharti, tadqiqot o‘tkazish, u orqali real ko‘rsatkichlar aniqlanib, muzey oldiga qo‘ygan vazifalarga qiyoslanadi. Ushbu taqqoslash rejalashtirilayotgan ishning maqsadi, asosiy yo‘nalishlarini aniqlashga yordam beradi. Tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, muzeylarda an’anaviy hunarmandchilik yarmarkalarini tashkil etish, ustalarning o‘zlari yasayotgan ashyolarning tayyorlanish texnologiyasini namoyish etishlari va sotishlari yaxshi natija bermoqda. Muzeylarning hunarmandlarga xonalarni bepul ijaraga berishi tavsiya etiladi. O‘zbekistonda bu borada dastlabki qadam Buxoro va Xiva muzey-qo‘riqxonasi tomonidan qo‘yildi.

Fondlarni tomosha qilishni xohlovchilarga muzey zaxiralarini ko'rsatish uchun ekskursiyalar tashkil etish ham yaxshi natija beradi. Restavratsiya va konservatsiyalashga oid ishlarni tomosha qilish ham tomoshabinlarda qiziqish uyg'otishi tabiiy. Muzey qoshida tashkil etilgan magazin va savdo shoxobchalari orqali muzey yo'l ko'rsatkichlari, taqvim-kalendarlar, kassetalar, kitoblar, emblemali suvenirlar sotilishini tashkil etish lozim.

O'z budjetini to'ldirishning noan'anaviy usullarini yaratgan muzeylar tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatishning yangi uslublarini qo'llash orqali to'plagan mablag'lariga binolarni ta'mirlash, zamonaviy axborot texnologiyalarini, ilmiy tadqiqotlar uchun jihoz-uskunalarni sotib olishi, yangi ekspozitsiya, ko'rgazmalar tashkil etish, eksponatlarni to'plash, restavratsiya qilish va hokazolarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu borada muzey menejmentining yordami beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi ham asta-sekin muzeylarning budjetdan tashqari ta'minotiga e'tibor qaratib, maxsus hukumat, viloyat va mahalliy loyiha, konkurslar o'tkazmoqda.

Hozirgi paytda jahonda ko'plab tashkilotlar maxsus madaniyat sohasida xayriya dasturlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Ularning aksariyati turli fondlar tomonidan moliyaviy ta'minlanib, bu yordam grantlar sifatida beg'araz moliyaviy va moddiy yordam ko'rsatadi. O'zbekiston muzeylari ham turli fondlar bilan hamkorlik bobida yangi tajriba to'plamoqda. Mustaqillik yillarida muzeylar istiqboli shart-sharoitlari tadqiq qilish va tahlilidan shunday xulosalar bildirish mumkin:

- bugungi kunda O'zbekiston muzeylari oldida ikkita muhim vazifa turibdi. Bir tomondan, odamlar ongida muzey haqida o'rnashib qolgan eskicha, noo'rin tasavvurlarni o'zgartirish bo'lsa, ikkinchi tomondan, muzey xodimlarining tomoshabinlarga nisbatan munosabatining ijobiy jihatlarini ko'chaytirish lozim;
- insonlar muzeyda o'zlarini erkin va ishonchli tutishlari uchun ular oldindan o'zlarining noo'rin fikrlarini o'zgartiradigan axborot olishlari lozim;
- muzey auditoriyaga o'z binosida yoki reklama orqali ta'sir etishi mumkin.

Shuning uchun reklamaga pulni tejamay, uni professional darajada, muzey uchun yagona, chiroyli ko‘rinishda yaratish zarurligi ko‘rsatildi<sup>8</sup>.

Mustaqillik yillarda muzeylarga bo‘lgan e‘tibor va talab oshib bormoqda. Bu albatta, muzeylarning ijtimoiy vazifalari bilan bog‘liq. O‘zbekiston xududida mavjud muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalqning ma‘naviy-axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelinayotgan xalqimizning boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi, noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o‘rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ‘ib qilish, ulardan xalqimiz ongida milliy g‘urur va iftixorni, istiqlol va Vatanga hurmat, sadokat tuygularini ko‘chaytirish yulida keng foydalanish, muzeylarning zamon talabiga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash, moddiy-texnika bazasini mustaxkamlab, jaxon muzeyshunosligi tajribalarini qo‘llashga zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Yana shu qatorda muzeylarni internet tizimi bilan bog‘lash va ilmiy jixatdan markaz bo‘lishdir. Respublikamiz Prezidentining “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”<sup>9</sup>gi farmoni muzeylar va muzey xodimlarining xayotida katta burilish nuqtasi bo‘ldi.

Mamlakatimiz xududidagi mavjud bo‘lgan muzeylar tuzimini yanada takomillashtirish, ularni xalqning ma‘naviy-axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini yanada oshirish maqsadida “O‘zbek muzey” Respublika jamgarmasi tuzildi. Bunga qo‘shimcha yana O‘zbekiston Vazirlar Maxkamasining “Muzeylar faoliyatini tubdan qo‘llab –quvvatlash masalalari to‘g‘risida”<sup>10</sup>gi qarori “O‘zbekmuzey”ga O‘zbekiston muzeylariga xar tomonlama yordam ko‘rsatish vazifasini topshirdi. Ushbu qarorda mamlakat muzeylarini ta‘mirlash zarur

---

<sup>8</sup> [www.fikr.uz](http://www.fikr.uz) “Muzeylarning dolzarb masalalari” maqolasidan

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1998-yil 12-yanvardagi PF-1913 farmoni

<sup>10</sup> O‘zbekiston Vazirlar Maxkamasining 1998-yil 5-martdagi qarori

texnik va zamonaviy asbob uskunalar bilan jixozlash hamda mablag bilan ta'minlash vazifalari yuklatilgan<sup>11</sup>.

Mazkur farmon va qaror muzeyshunoslar ko'pdan kutgan hujjat bo'lib, muzeyshunoslik fanining ravnaqiga ko'p yo'l ochib berdi. farmonda ko'zlangan maqsadlardan biri, respublikamizdagi barcha muzeylarni yagona bir tizimga birlashtirish, ya'ni ularni ma'naviy boshqaruvchi markaziy rahbar organ yaratishdan iborat edi. O'sha Farmonga binoan yangi tashkil topgan "O'zbekmuzey" jamg'armasi faoliyatining birinchi kunlaridanoq o'zining asosiy yo'nalishlarini belgilab, amalga joriy etish lozim bo'lgan vazifalarini aniqladi.

- Respublikamiz muzeylari o'z yo'nalishlariga qarab xalqimiz boy madaniy merosini, uning taraqqiyot bosqichlaridagi o'rnini haqqoniy aks ettirib, zamon talablari asosida istiqloq ruhidagi ekspozitsiyalar yaratishi zarurligi;
- Asrlar davomida yaratilib, chetga chiqib ketgan merosimizni Vatanimizga qaytarish;
- Muzeylarni ma'naviyat o'chog'iga aylantirib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbiga davlatchiligimiz tarixiga, qadimgi asos solingan ajdodlarimiz merosiga nisbatan g'urur va faxr tuyg'usini singdirish;
- Muzeylarimizdagi boy eksponantlarni, yutuqlarimizni jahon jamoatchiligiga tanitish maqsadida targ'ibot ishlarini ko'chaytirib, viloyatlararo ko'rgazmalar tashkil etishga ko'maklashish;
- Xalqaro turizmni rivojlantirib, O'zbekiston muzeylariga chet ellik sayyohlarni jalb etib, ularga yuksak madaniy xizmat ko'rsatish;
- Muzeylar fondidagi eksponatlarning yagona ruyxatini tuzish ishlarida zamonaviy texnik vositalardan keng foydalanish hamda noyob eksponatlar aks etgan otkritkalar, bukletlar, yo'l ko'rsatgichlar, kataloglar chop etish;

---

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1998-yil 12-yanvardagi PF-1913 farmoni

Keyingi yillar davomida muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash yuzasidan bir qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, respublika “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi 2002 yil 16-mayda “XXI asrda O‘zbekiston muzeylari” mavzuyida ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Muzeylarni milliy istiqlol g‘oyasiga asoslanib jihozlanishining ahvolini o‘rganish va bu borada ularga yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi 2002 yil 11 iyundagi 07/105-282-sonli qarori respublikamizdagi barcha muzeylarning faoliyatini o‘rganishga qaratildi. Mazkur xujjatga binoan “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi tomonidan bir guruh etakchi mutaxassis olimlarni, muzeyshunoslarni jalb etgan holda ishchi guruhi tuzildi.

Muzeylar, ayrimlar tasavvur etganidek, shunchaki “yoyma bozor”, kolleksionerlar tomonidan ota-bobolarimiz merosini yig‘ib borish uchun qurilgan uy ham emas, balki o‘zida ma’lum bir davr tarixi va ma’lum bir eksponat haqida aniq bir ma’lumot berishga mo‘ljallangan tabarruk dargohdir.

Respublikadagi barcha muzey rahbarlari bugungi kun talablariga to‘liq javob beradigan ilmiy-uslubiy yunalishda ishlab, milliy istiqlol g‘oyalari ruhida muzey ishini yanada takomillashtirsa, mavjud muammolar asta-sekin bartaraf bo‘ladi, albatta.

Mustaqillik yillarida muzeyshunos olimlarimiz respublikada muzeylar faoliyatini yanada yaxshilash masalasida muzeylarni rivojlantirishning maxsus ilmiy kontseptsiyasini ishlab chiqdi. Mutaxassislar fikricha, bu borada O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi yangi ekspozitsiyasining ilmiy kontseptsiyasi barcha muzeylar uchun namuna bo‘la oladi. Hozir kontseptsiya va tematik-ekspozitsion rejalar ko‘paytirilib, respublikamizdagi barcha muzeylarga tarqatildi.

Bundan tashqari kadrlar tayyorlash masalasiga jiddiy qarash maqsadida oliy o‘quv yurtlariga muzeyshunos olimlarni jalb etib, o‘qitish usullarini takomillashtirish. O‘quv mashg‘ulotlarini amaliy mashg‘ulotlar bilan birga olib borish, respublikada etakchi muzeylarda muzey xodimlarining malakasini oshirish.

Mustaqillik yillarida bu muzey tarmoqlariga e'tibor bergan bo'lsak, Prezidentimiz qaroridan so'ng yildan yilga rivojlanib, takomillashib bormoqda. Muzeylarning to'plovchilik va noshirlik faoliyati ham rivojlanib o'smoqda. Muzeylarning to'plovchilik faoliyatiga ilmiy etnografik, arxeologik izlanishlar natijasida topilgan ilmiy asarlar, qo'lyozmalarni yig'ish va shular asosida muzeylardagi imkoniyat darajasida muzey xodimlarining maqolalari bilan chiqishlarini ko'rishlarimiz mumkin. Bundan tashkari respublika miqyosida muzeylar faoliyatini maxsus jurnallarda yoritib borish va nashryotlarda, bukletlar, plakatlar chiqarish, ko'rgazmalar tashkil etish va uslubiy kitoblarda yoritib borish va boshqa ko'plab ishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

## **1.2. Mintaqa turizmini rivojlantirishda tarixiy-madaniy yodgorliklarning tutgan o'rni va ahamiyati**

Turistik resurslar ko'lamiga insonning turistik ehtiyojlarini qondiruvchi shartlar sifatida tabiat komponentlarning birikmasi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va madaniy boyliklar kiradi. Turistik resurslarning maxsus, (xarakterli) xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

Yaxlitlik, dinamikaviy, sig'im, loyqlik, foydalilik, jalb qiluvchanlik. Turizmni aylanma va ekspluatatsiyaga yo'naltirilishning ob'ekti sifatida turistik xo'jaliklarni turistik resurslar bilan rivojlanishi uchun bir qator muayyan hududlar ko'rib chiqiladi.

Turistik xo'jalik o'z ichiga umummillat salohiyati tabiiy resurslar, tarixiy, madaniy, arxitektura va boshqa joylardan foydalanishni oladi.

Rekratsion resurslar tushunchasi «sayyohlik resurslar» tushunchasini tuldiradi va kengaytiradi<sup>12</sup>. U uz ichiga tabiat komponentlarini, ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlar

---

<sup>12</sup> A.N.Norchaev. Xalqaro turizm. Ma'ruza matnlari. TDIU 2008 y. 43 b.



va madaniy boyliklarni oladi. Ular xuddi inson extiyojlarini sogʻlomlashtiruvchi sharoit sifatida namoyon boʻladi.

Sayyohlik resurslarini quyidagilarga boʻlish mumkin:

-tabiiy sayyohlik resurslari (qiymat, mahalliylik, suv resurslari, relf, gorlar, mineral va bolneologik manbalar, oʻsimlik va xayvonot olami, milliy parklar, tabiat burchaklar)

-tan olingan resurslar – madaniy, tarixiy, arxeologik, etnografik obʻektlar (muzeylar, koʻrgazmalar, teatrlar, arxeologik, tarixiy oʻzgarishlar)

- ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlar va resurslar (hududning geografik xolati, aloqaliligi uning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajasi, zamonaviy va kelajakda hududiy xoʻjalikni tashkil etish, ijtimoiy infratuzilma, aholi ijtimoiy –demografik tuzilmasi, mexnat resurslari transport aloqalarining rivojlanishi darajasi).

Sayyohlik resurslarining maxsuslashganligini va oʻziga xosligi kabi xususiyatlarini alohida taʼkidlab oʻtish lozim.

Sayyoramizda har yili millionlab insonlar oʻzga mamlakatlarga sayohatlarga otlanishadi. Turistlar xorijiy mamlakat, u yerda yashayotgan xalqlarning urf-odatlarini, anʼanalari, madaniyati va maʼrifati, tarixi va tabiatidan voqib boʻladi, goʻzal maskanlarida boʻlib zavqlanadi. Globallashuv jarayonida turizm yanada rivoj topib, natijada, ushbu sanoat jahon tovarlar va xizmatlar eksportida birinchi oʻringa chiqib oldi. Statistika maʼlumotlariga koʻra, turistik oqim hozirda yiliga bir milliard nafardan ziyod kishini tashkil etmoqda. Insoniyatning madaniy beshiklaridan hisoblangan Oʻzbekiston diyori ham ushbu oqimning ajralmas boʻlagi sanaladi. Respublikamiz hududidagi qadimiy sivilizatsiyalar, noyob tarixiy va madaniy yodgarliklar, arxitekturaning buyuk namunalari oʻrganishga bugungi kunda Yaponiya, Germaniya, Fransiya va boshqa ilgʻor mamlakatlar olimlarining kirishgani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Zero, Oʻzbekiston ham oʻzining jozibadorligi, noyob arxitektura obidalari, madaniy merosi va dam olish, sayohatlar uchun moʻljallangan

maskanlari bilan jahondagi ilg'or mamlakatlardan qolishmaydigan yirik turistik davlatga aylanib bormoqda<sup>13</sup>.

Ma'lum hududda turizmni rivojlantirishda u joyning tarixiy – madaniy resurslari salohiyati asosiy o'rinni egallaydi. Turistik xizmatda madaniy – tarixiy resurslardan ko'p maqsadlarda foydalanish mumkin. Madaniy majmualarning jozibadorligi ularning tarixiy va ta'sviriy bahosiga, foydalanish qo'layliligiga bog'liq. Mavjud resurslardan turizm faoliyatida intensiv foydalanish, ya'ni antropogen yukning oshib borishi natijasida tabiiy turistik resurslarning ifloslanishiga, tarixiy obidalarning tez buzilishiga olib keladi. Turizmga oid Gaaga deklaratsiyasida qo'yidagi takliflar bildirilgan:

- turistlarni mamlakat ichkarisida yoki chet elda borgan joylarida madaniy meros va atrof – muhitni saqlashga, ularga nisbatan hurmatda bo'lishga o'rgatish, hamda targ'ib qilish;
- joylarda turistlarni qabul qilish darajasini aniqlash, me'yordan ortishiga yo'l qo'ymaslik lozim deb ta'kidlanadi.

Madaniy – tarixiy resurslarga moddiy va madaniy turli yodgorliklar majmuasi, ma'lum mintaqaning turistik qiziqish ob'ektlari hisoblanadi. Mintaqalarning arxitektura yodgorliklariga boyligi turizmni rivojlanishiga turtki bo'ladi. Ammo oxirgi paytlarda turistik oqimning oshishi ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Madaniy – tarixiy resurslardan turizm maqsadida saqlashni quyidagicha amalga oshirish taklif qilinadi:

- mavjud tarixiy joylar, binolar va yodgorliklarni turistik qiziqish ob'ektlari sifatida qayta tiklash;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilishni faollashtirish;
- turistik ehtiyojni qondirish maqsadida atrof – muhitni saqlash va yaxshilashda boshqaruv organlari ma'suliyatini oshirish.

---

<sup>13</sup> “O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” 1/2014 “Turizm istiqbollari” maqolasidan 11-bet

Turistik resurslar ichida jahon ahamiyatidagi madaniy ob'ekt va yodgorliklar asosiy o'rinda turadi. «Madaniy meros» deyilganda qo'yidagilar tushiniladi:

- yodgorliklar: arxitektura binolari, arxeologik ahamiyatidagi joylar, ilmiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega g'orlar, tarixiy yozuvlar;
- ansambllar: ilmiy, madaniy yoki tarixiy ahamiyatga ega o'zaro bog'langan binolar guruhi. Masalan, Registon ansambli;
- mehmondo'stlik joylari: inson yoki tabiat tomonidan yaratilgan estetik, etnografik, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan, o'ziga jalb qiluvchi o'ziga xos joylar.

Mamlakatimizda tarixiy, madaniy, arxeologik, qadimiy arxitektura sohasidagi noyob ob'yektlar soni yeti mingdan ziyodni tashkil qiladi. O'zbekistonning to'rtta-Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlari YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yhatiga kiritilgan. Endilikda ushbu shaharlar ochiq osmon ostidagi muzeylar sifatida tilga olinmoqda<sup>14</sup>.

Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritiladigan ob'ektlarning qo'yidagi xususiyatlari hisobga olinadi:

- inson ijodining noyob namunalari;
- ajoyib madaniy, arxitektura ob'ektlari, hamda madaniy landshaftlari-ning alohida ahamiyatga ega hududlari;
- zamonaviy sivilizatsiyaning noyob namunalari, qurilishlari;
- inson tarixi bilan bog'liq binolar yoki arxitektura ansambllari, landshaftlari<sup>15</sup>.

Respublikamiz mustaqillikga erishgandan so'ng tabiiy, hamda madaniy-tarixiy yodgorliklarni, milliy merosni asrab-avaylashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada mavjud turistik resurslarni yaxshi holatda kelajak avlodga etkazish, ulardan turizm maqsadida samarali foydalanish, ulardan olinadigan iqtisodiy samaradorlikka bog'liq. Bu esa, viloyatdagi arxitektura yodgorliklaridan, arxeologik topilmalardan turizm sohasida oqilona foydalanishning tashkiliy, huquqiy, hamda me'yoriy asoslari

---

<sup>14</sup> «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» 1/2014 «Turizm istiqbollari» maqolasidan 11-bet


<sup>15</sup> Tuxliev I.S. «Turizm asoslari». SamISI, S.: 2008 y.82-83-betlar

yaratilishi juda muhimdir. Turizm sohasida ishlayotgan yangi tashkil topgan turistik tashkilotlarga bozor munosabatlari sharoitida turli imtiyozlar berish tizimini yaratish dolzarb masaladir.

So‘ngi yillarda mamlakatimizga turist sifatida tashrif buyuruvchi xorijlik fuqorolar sonini sezilarli darajada oshirish uchun sohada keng ko‘lamli islohotlar, muayyan sa’y- harakatlar amalgam oshirilmoqda, maxsus dasturlar ishlab chiqilib, hayotga keng joriy etilmoqda. Natijada, O‘zbekistonda turistik xizmatlar hajmining o‘sishi yildan-yilga ortmoqda. Masalan, 2013-yilda ushbu ko‘rsatkich 16 foizni tashkil qilib, xizmatlar eksporti 20 foizga oshdi, qariyb 600 ming nafar xorijlik turistlar respublikamizda mehmon bo‘ldi<sup>16</sup>.

**O‘zbekistonga dunyo mintaqasidan keluvchi turistlarning umumiy sonidagi ulushi<sup>17</sup>.**

**1.2.1-diagramma**



**Manba: «O‘zbekturizm» MK ma’lumoti**

Xorijiy turistlarning turistik tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab tarkibini va hajmini tahlil qilishda keluvchilarning maqsadlari bo‘yicha strukturasi muhim ahamiyatga ega. Uning 2000-2004 yillardagi o‘zgarish dinamikasi diagrammada

<sup>16</sup> «O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» 1/2014 «Turizm istiqbollari» maqolasidan 11-bet

<sup>17</sup> «Turizm asoslari» I.Tuxliev 2008y

ko'rsatilgan. O'zbekistonga 2004 yilda turistlar oqimining mintaqaga tashrif buyurishi diagrammada ko'rsatilgan. Unchalik katta bo'lmagan turistlar oqimi Sharqiy Osiyo, Tinch Okeani mintaqaholisi va Evropadan kelishgan. Butunjahon Turistik Tashkiloti (BTT) tomonidan o'rnatilgan tasnif bo'yicha, barcha sobiq ittifoq hamdo'stlik mamlakatlari Evropa mintaqasiga kiradi. Shuning uchun O'zbekistonga qo'shni hamdo'stlik mamlakatlardan keluvchi turistlar ham Evropa mamlakatlardan kelgan hisoblanadi

Tadqiqotlar ob'ektimiz bo'lgan Xorazm viloyatida turizm resurslarining hozirgi kungacha ro'yhatga olingani – 256 ta madaniy meros ob'ektlari, shu jumladan 18 ta arxeologiya, 134 ta tarixiy me'morchilik yodgorliklar, 6 ta diqqatga sazovor joylar, 32 muqaddas joylar va 66 ta haykaltaroshlik san'ati yodgorliklar hisoblanadi. Qayd qilingan turistik resurslar ushbu kungacha hisobga olingan tarixiy – madaniy me'ros ob'ektlari deb tan olingan va buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

### 1.2.1-jadval

#### XORAZM VILOYATI MADANIY MEROS OB'EKTLARI RO'YXATI<sup>18</sup>

№	Madaniy meros ob'ektlari turlari	SONI
1	Arxeologiya yodgorliklari	18
2	Arxitektura yodgorliklari	134
3	Haykaltaroshlik san'ati yodgorliklari	66
4	Diqqatga sazovor joylari	6
5	Muqaddas joylari	32
<b>JAMI:</b>		256

Xorazm viloyatidagi turistik resurslarning asosiy qismi aynan tarixiy–me'moriy ekanligidan ishlab chiqariladigan turistik marshrutlarni ana shu yo'nalishda ko'chaytirish maqsadga muvofiqdir.

<sup>18</sup> Xorazm viloyati Xokimligi Madaniyat va Sport ishlari boshqarmasi malumotlari

Viloyatda hozirgacha 20 ta arxeologik maskanlar ro'yxatga olingan. Arxeologik turizm dunyo mamlakatlarida o'zining alohida e'tiboriga molik turizm turlaridan ekanligi ma'lum bo'lsada bu arxeologik maskanlardan turizmda foydalanish dasturlari ishlab chiqilganicha yo'q. Bu yo'nalishda xalqaro turistlarning ziyoli, ilmi, tsivilizatsiya tarixiga qiziquvchanliklarini xisobga olsak, viloyatda arxeologiya turizmiga xalqaro turistik oqimni ko'chaytirish imkoniyatlari katta hisoblanadi.

Qayd qilinganlardan xulosa qilsak, viloyatda mavjud arxeologik maskanlardan xalqaro turizmda foydalanish marshrutlarini ishlab chiqish dastlabki yo'nalishlardan bo'lmog'i lozim. Viloyatning tarixiy–arxeolgik yodgorliklari joylashgan hududlar quyidagi tarixiy–geografik joylashuvga ega:

1. Xiva tarixiy, geografik, arxeologik hududi (Xiva tumani, Xiva shahri, Tuproqqal'a yodgorliklari).
2. Yangiariq tarixiy– geografik, arxeologik hududi (Tuproqqal'alar, Olmaotishgan – 1, Olmaotishgan – 2 yodgorliklari).
3. Bog'ot tumani tarixiy – geografik, arxeologik hududi (Qalajiq, Qoratepa yodgorliklari).
4. Shovot tumani tarixiy –geografik, arxeologik hududi (Tuproqqal'a, Qatqal'a, Vayangan yodgorliklari)
5. Xazorasp tumani tarixiy-geografik, arxeologik hududi (Xazorasp, Qirqqiztepa, Xushbo'ztepa, Chingiztepa, Doshqal'a, Ucho'choq, Meshekli yodgorliklari).
6. Qo'shko'pir tumani tarixiy–geografik, arxeologik hududi (Tuproqqal'alar, Xo'jaqal'a yodgorliklari).

Qayd qilingan arxeologik yodgorliklar ichida Xiva va Xazorasp yodgorliklarigina nisbatan yaxshi o'rganilgan. Qolgan yodgorliklar tarixiy jihatdan ham hali talab darajasida o'rganilgan emas. Ayniqsa, Xazorasp tumanidagi yoshi 3000 yilga teng bo'lgan Xazorasp qal'asi ichki turizm ham, xalqaro turizm ham juda katta turistik oqimni hosil qilishi mumkin. Lekin bu qal'aga boriladigan yo'l ta'mirlashni talab qiladi. Demak ekologik vaziyat tang sharoitli Xorazm viloyatida turistik resurslar va turistik marshrutlarni to'g'ri tanlashda va ishlab chiqarishda

mamlakatimizdagi eng koʻhna ushbu qalʼadan viloyatda turizm samaradorligini oshirish birinchi navbatda foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi.

Xalqaro turizm ham ichki turizmni rivojlantirishda ham tajribasizlik, turizm sohasini rivojlantirishda eng sust, qoniqarsiz harakatlarimiz natijasida oʻtmish tarixiy – madaniy yodgorliklarimizdan foydalanishda tarixni yaxshi bilmaganimiz ham maʼlum boʻlib qolmoqda.

Shuningdek, «Tuproqqalʼa» devorlaridan topilgan osori – antiqalar orasida qogʻoz oʻramlarini koʻtarib turgan hattot va arfa chalayotgan qizning rangli rasmlari (tiklangan) ni ekskursiya va turmarshrutlarda koʻrsatish zarurligi yuqorida qayd qilindi. Misrdagi voqeʼalar xalqaro turistlarga etkazib berilsa, oʻtmish ajdodlarimizning qanchalik kuchli madaniyatga ega ekanliklari haqida ulardagi qiziqish yanada koʻchayadi.

Viloyatda turizm sohasida malakali mutaxassis yoʻqligidan asosiy ekskursiya obʼektlari joylashgan Xiva shahrining Ichan qalʼa va Deshon qalʼadagi tarixiy arxitektura inshootlarining rasmlarigina qisqacha izohlarda turistlarga taqdim qilinmoqda. Bunday holatlarda xalqaro turistlar bu ulkan tarixiy obidalarning koʻzga tashlanadigan inshootlarini tomosha qilish bilan chegaralanib, tarixiy voqelikga ega lekin hozir taʼmir talab obidalarga qaramasdan oʻtib ketmoqda.

Respublikada turizmni rivojlantirish, turistik xizmatlar koʻrsatish, sifatini oshirish va turizm yoʻnalishlarini kengaytirishga qaratilgan dolzarb masalalar toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining bayonida (30 yanvar 2009 y – 07– 1–5) koʻrsatilgan masalalar boʻyicha Xorazm viloyatidagi Ishchi guruh hisobotida viloyat boʻyicha 36 ta ekskursiya obʼektlarini taʼmirlash va bu tarixiy obʼektlardan ekskursiya yoʻnalishlarida foydalanishni yoʻlga qoʻyish belgilangan. Ushbu hisobot va «Xorazm viloyati hokimligining 2009 – 2010 yillarda Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish hududiy dasturi» da belgilangan rejalar boʻyicha hamda oʻtkazilgan tadqiqotlarning, kuzatishlarning natijalariga asoslanib viloyatdagi qoʻyidagi (asosiy) tarixiy, madaniy turistik obʼektlarga turistik – ekskursion marshrutlarni ishlab chiqish viloyatda xalqaro turistik oqimni koʻpaytirishni taʼminlaydi:

- Ichan – Qal’a Davlat muzeyi qo‘riqxonasida joylashgan Muso – To‘ra madrasasi;
- Ichan – Qal’a Davlat muzeyi qo‘riqxonasida joylashgan Oq masjid;
- Ichan – Qal’a Davlat muzeyida joylashgan Ota Murod Qushbegi masjidi;
- Ichan – Qal’a Davlat muzeyi qo‘riqxonasida joylashgan To‘g‘oni – Turk maqbarasi;
- Ichan – Qal’a Davlat muzeyi qo‘riqxonasida joylashgan Amir To‘ra madrasasi;
- Ichan – Qal’a Davlat muzeyi qo‘riqxonasida joylashgan Qutlug‘ Murod Inoq madrasasi;
- Ichan – Qal’a Davlat muzeyi qo‘riqxonasida joylashgan Yusuf Yasovul boshi madrasasi;
- Ichan-Qal’a Davlat muzeyida joylashgan Polvon darvozasi;
- Ichan–Qal’a Davlat muzeyida joylashgan Tosh darvozasi;
- Ichan – Qal’a Davlat muzeyida joylashgan Otajonboy madrasasi;
- Xiva tumanidagi Nurullaboy madrasasi;
- Xiva shahridagi Xon dorixonasi va Xon kasalxonasi;
- Xiva shahridagi Mamat Karim madrasasi va minorasi;
- Xiva shahridagi To‘rt Shovvoz majmuasi;
- Xiva shahridagi Bikajon Bika madrasasi;
- Xiva shahridagi Said Muhammadxon madrasasi;
- Xiva shahridagi Xorazmshohlar madrasasi;
- Xiva tumanidagi Bog‘ishamol Olloqulixon bog‘i;
- Xiva tumanidagi Islom xo‘ja qarorgohi;
- Xiva tumanidagi «Chodira hovli» yodgorligi;
- Xiva shahridagi Xazorasp darvozasi;
- Xiva shahridagi Xudargan Devonov uy muzeyi;
- Xiva shahridagi Avaz O‘tar uy muzeyi;
- Xiva shahridagi Shohimardon majmuasi;
- Xiva shahridagi Matvafo karvonboshi savdo uyi;
- Urganch shahridagi Urganch suratlar gallereyasi;



- Urganch tumanidagi «Ulli hovli» yodgorligi;
- Xazorasi tumanidagi «Xazorasp qal'a» devori;
- Yangiariq tumanidagi «Shayxmuxtorvali» ziyoratgohi;
- Bog'ot tumanidagi «Qalajiq qal'a» (Dovud qal'a).

Qayd qilingan tarixiy ob'ektlar ro'yxatida Xorazm viloyatidagi, xususan Xiva shahridagi jahonga mashhur tarixiy obidalarning ko'plarini keltirmaganimizning asosiy sabablari shundan iboratki, birinchidan, ushbu obidalarning aksariyat qismi ta'mirlashni talab etmoqda. Ikkinchidan, ushbu tarixiy obidalariga ekskursiyachilar, ayniqsa xalqaro miqiyosdagi turistlarni ko'plab taklif qilish albatta mahalliy hokimiyatlarni harakatga keltiradi va ta'mirlash, ko'kalamzorlashtirish ishlarini tezlashtiradi. Ekologik vaziyat tang sharoitda turistik resurslar va turistik marshrutlarni to'g'ri tanlash viloyatda turizmni rivojlantirish va samaradorligini oshirish omili ekanligini to'g'ri tushunib vohadagi biologik xilma – xillikdan rejali va unumli foydalanish kerak. Ma'lum tarixiy joylar, obidalar va hududlarni maxsus muhofazaga olmaslik, ularni emirilishiga, yomon ahvolga tushib qolishiga olib keladi. Shu sababli maxsus muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hudud va muzeylarda qo'riqxonalar tashkil etilishi muhim deb hisoblaymiz. Muhofaza qilinadigan hududiy shakl hisoblangan muzey-qo'riqxonalar o'z hududidagi tarixiy-madaniy merosni, atrof-muhitni muhofaza ostiga oladi.

Tarixiy, arxitektura yodgorliklaridan turizm maqsadida samarali foydalanishga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri bu tarixiy joylar oldida, atrofida har xil qurilishlarning (turar joy, savdo do'koni, maishiy xizmat ob'ektlari, yo'l va boshqalar) bo'lishidir. Bu qurilishlar ko'pincha tarixiy joyning umumiy ko'rinishini buzadi, undan tashqari obidalarning buzilishi, emirilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tarixiy joylar atrofida keraksiz qurilishlari to'xtatish, qurilgan taqdirda ham tarixiy joyga hamohang bo'lishi talab etilishi kerak.


Xorazm viloyati boy turistik resurslarga ega bo'lgan hududdir. Ulardan madaniy – tarixiy, ekologik turizm resurslari, bilish turizmi, sog'likni tiklash, hamda diniy turizm resurslari alohida ajralib turadi. Albatta, bu resurslar asosida turmahsulotlarni

shakllantirish va tayyor turmahsulotlarni iste'molchilarga etkazish bu sohada band bo'lgan turoperatorlarning faoliyatiga ham bog'liq bo'lib, hozirgi kunda mintaqadagi turoperatorlik firmalari asosan jo'natish (shop-tur) bilan shug'ullanishi ular faoliyatidagi samaradorlikni etarli darajada ta'min eta olmayapti. Mintaqaga turistlar oqimini kelishini ko'paytirish iqtisodiyotni rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishini hisobga olsak, turoperatorlarning asosiy vazifasi tashqaridan keladigan potentsial turistlar uchun barcha imkoniyat va qulayliklarni yaratish va shu orqali ular sonini ko'paytirishga erishishlari lozim. Viloyatda turizmning rivojlanishi undagi mavjud salohiyatni yanada oshirish bilan bog'liqdir. Viloyat turizmini rivojlantirishda iqtisodiy salohiyat, ya'ni turizmga xizmat qiluvchi qayta ishlab chiqarishni rivojlantirish, ular uchun shart – sharoit yaratish bilan bog'liq.

Xorazm viloyatida turizm sohasini samarali rivojlantirish, turistik xizmatlarning viloyat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini ko'paytirish, turistik xizmatlar sohasida yangi ish o'rinlarini ochish, sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish choralarini ko'rish, istiqbolda ilmiy jihatdan asoslangan istiqboliy ko'rsatkichlarini aniqlash juda muhim masalalardan biridir.

Turizm tizimining hozirgi rivojlanish holatini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, turizm rivojlanishini ifodalovchi barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarda o'sish kuzatiladi. Bu esa tarmoqni isloh qilish, uning moddiy-texnika bazasini ta'mirlash va turistlarga servis xizmati ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijalari hisoblanadi. Viloyatimizda turizm sohasini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning ijobiy natijalari viloyatimizda turistlarga turistik xizmatlar hajmining oshishida o'z aksini topmoqda. Buni quyidagi diagramma orqali kuzatish mumkin:

## 2.2.2- diagramma



Manba: Xorazm viloyat Davlat Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Demak, yuqoridagi ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, viloyatimizda turistik xizmatlar hajmining oshishida yildan-yilga ijobiy natijalarga erishilyapti.

### **1.3. Mintaqa turizmini rivojlantirishda tarixiy muzeylarni tashkil qilishning tashkiliy - huquqiy va iqtisodiy jihatlari.**

Har qanday mamlakatda turizmning rivojlanishi, eng avvalo, ushbu sohaga nisbatan davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatning samaradorlik darajasiga bog'liq. Davlat turistik infratuzilmaning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ya'ni me'yoriy-huquqiy asoslarni barpo etish, umuman turizm va uning alohida turlarini rag'batlantirish bo'yicha tegishli tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish, turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar o'rtasida halol raqobat muhitini yaratish, turizmga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasini tartibga olish, turistlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish va kafolatlash orqali ushbu sohaning rivojlanishiga yordam ko'rsatadi.

Sobiq Ittifoq davrida mavjud tuzumning o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy imkoniyatlariga etarli darajada baho berilmasligi tufayli mamlakatimizda turizm sohasi yuqori sur'atlarda rivojlanmadi. Respublikamizning boy tarixiy-madaniy obidalari va milliy arxitektura namunalaridan turistik ob'ekt sifatida foydalanilmadi. O'z navbatida mamlakatimiz fuqarolari ham jahon turizmi imkoniyatlaridan bahramand bo'la olmadilar.

Mamlakatimizning siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritishi, bozor munosabatlariga asoslangan ochiq iqtisodiyot asoslarining shakllantirilishi turizm sohasini O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirish uchun real shart-sharoitlarni vujudga keltirdi. Biroq respublikalararo xo'jalik aloqalarining buzilishi, inflyatsiyaning yuqori darajasi, murakkab siyosiy vaziyat va boshqa bir qator omillar ta'sirida XX asr 90-yillarining boshlarida turizm tarmog'i boshqa tarmoqlar singari qiyin ahvolga tushib qoldi.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 1992 yilda respublikamizda xorijiy turistlar soni 4-5 barobarga qisqardi, turizm imkoniyatlaridan foydalanish darajasi 6 foizdan

oshmadi, bitta xorijiy turistdan olinadigan daromad esa 1 sutkada 12 dollarni tashkil etdi<sup>19</sup>.

Buning ustiga bu davrda xizmatlar ko‘pincha pasaytirilgan tariflar bo‘yicha “rubllarda” amalga oshirildi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 1992 yilda turizm imkoniyatlaridan etarli darajada foydalanmaslik oqibatida respublikamiz 3 mln dollardan ko‘proq daromaddan mahrum bo‘ldi. Natijada 1992 yilning oxiriga kelib turizmning har ikki ob‘ektidan biri zarar bilan ishladi<sup>20</sup>.

Shu munosabat bilan O‘zbekistonda turizm sohasini hamda uning ajralmas qismi bo‘lgan tarixiy-madaniy obidalarni rivojlantirish ob‘ektiv zaruriyatga aylandi.

1991 yilda 31 avgustda o‘zbek xalqi uzoq vaqtlardan beri orziqib kutgan Mustaqillikka erishdi. Hayotimizning barcha sohalari kabi muzeylar faoliyatida ham katta tarixiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Dastlabki qadam sifatida shuni aytish mumkinki, Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 21 aprel qaroriga muvofiq O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi qayta tashkil etildi. Mohiyat e‘tibori bilan qaralganda tom ma‘nodagi zamonaviy va milliy muzeyga aynan shu sanada asos solindi<sup>21</sup>.

1994 yil 23 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 618-sonli, 1998 yil 5-dekabrda «Muzeylar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalalari to‘g‘risida»gi 98-sonli qarorlari va Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvar PF - 1913-sonli «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni e‘lon qilindi. Bu muhim tarixiy hujjatlar Prezidentimizning ma‘naviyatga ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rligining yana bir ifodasidir. Ularda belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan Madaniyat ishlari vazirligi Xalqaro «Oltin meros» xayriya jamg‘armasi, Badiiy Akademiya, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi va boshqa tegishli idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini yanada yaxshilash

---

<sup>19</sup> Tuxliev N.T., Taksanov A. *Ekonomika bolshogo turizma*. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001, b.124

<sup>20</sup> O‘sha manba, 25-bet.

<sup>21</sup> T.Abdullayev “Muzeysunoslik va Arxivshunoslik”91-bet Toshkent 2008-y

va takomillashtirishning ilmiy kontsepsiyasini hamda muzeylarning rivojlanishi va moliyaviy ta'minoti buyicha alohida dastur ishlab chiqdi.

Ushbu dasturga binoan, Buxoro Davlat muzey qo'riqxonasi tarkibidagi, Xiva «Ichon Qal'a» muzey qo'riqxonasi tarkibidagi, Samarqand Davlat muzey-qo'riqxonasi tarkibiga kiruvchi bir qator muzeylarda ta'mirlash ishlari olib borildi<sup>22</sup>.

O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"<sup>23</sup>gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining "Muzeylar faoliyatiga taaluqli meyoriy hujjatlar to'g'risida"<sup>24</sup>gi qarori muzeyshunoslikni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etdi. Chunonchi, mamlakatimizda muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning fuqarolar ma'naviy-axloqiy kamolotida tutgan o'rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanayotgan noyob, nodir ashyolarni avaylab asrash, o'rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, muzeylarni zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jahon muzeyshunosligi tajribalarini qo'llash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish vazifalari qo'yildi.

Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi Qonunini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy xujjatlarni tasdiqlash haqida"gi 2010 yil 12 aprel 68-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va Sport ishlari vazirligining "Tasarufidagi Muzeylar faoliyatini o'rganish to'g'risida"gi 2010 yil 8 fevraldagi 99-sonli buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 11 iyuldagi "Davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqiligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 189-sonli qarori qabul qilindi.

Bundan tashqari 2001 yil 30 avgust "O'zbekiston Respublikasining madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'grisida" gi №269-sonli O'zbekiston Respublikasining qonuni madaniy-tarixiy

---

<sup>22</sup> T.Abdullayev "Muzeyshunoslik va Arxivshunoslik"110-bet Toshkent 2008-y

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 13 sentabrdagi qonuni "Xalq so'zi" 2008 y

<sup>24</sup> Vazirlar mahkamasining 2008 yil 31 oktabrdagi №237-sonli qarori "Xalq so'zi" 2008 y

yodgorliklarni, milliy merosni asrab-avaylashga katta zamin yaratdi. Bu qonun madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tartib - qoidalarini o'zida mujassam etgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, u quyidagi qismlardan iborat:

I bob. Umumiy qoidalar (1-4 moddalar) II bob. Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi (5-9 moddalar) III bob. Madaniy meros ob'ektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish (10-19 moddalar) IV bob. Madaniy meros ob'ektlarini asrash (20-22 moddalar) V bob. Madaniy meros ob'ektlariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish (23-28 moddalar) VI bob. Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy xududlar (29-33 moddalar) VII bob. Yakunlovchi qoidalar (34-36 moddalar).

Ma'lum tarixiy joylar, obidalar va hududlarni maxsus muhofazaga olmaslik, ularni yemirilishiga, yomon ahvolga tushib qolishiga olib keladi. Shu sababli maxsus muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hudud va muzeylarda qo'riqxonalar tashkil etilishi muhim deb hisoblaymiz. Muhofaza qilinadigan hududiy shakl hisoblangan muzey-qo'riqxonalar o'z hududidagi tarixiy-madaniy merosni, atrof-muhitni muhofaza ostiga oladi.

Hozirgi zamon muzeylari madaniy-tarixiy va tabiiy ilmiy qadriyatlarni mushohada qilishga mo'ljallangan ijtimoiy axborot institutini o'zida namoyon etadi. Ular muzey ashyolarini axborot vositasida muhofaza qilish, to'plash va tarqatish, jamiyatning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan, ixtisoslashtirilgan madaniy-ma'rifiy muassasalar hisoblanadi. Muzeylar nafaqat tabiat hamda jamiyatning noyob va xilma-xil ashyolari xazinasi, balki muhim ilmiy, ma'rifiy-tarbiyaviy markazlari hamdir. O'zbekiston o'z fuqarolari, xususan yoshlarning o'tmish tarixining ijobiy voqealari bo'yicha bilimlarini ko'paytirish, ularda vatanparvarlik, Ona Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ularini kamol toptirishga katta ahamiyat bermoqda. Tarixni bilish odamni ma'nan boy, kuchli va insonparvar qiladi. «Ma'naviylik, – deb haqli ravishda ta'kidlaydi davlat rahbari, – o'z xalqi tarixi, uning madaniyati va

maqsadlarini chuqur tushunishi va bilishiga tayanganida qudratli kuchga aylanadi»<sup>25</sup>.

Ma'lumki, so'nggi yillarda respublika poytaxti, viloyat va tuman markazlarida tarixiy yo'nalishdagi qator yangi muzeylar tashkil etildi, eskilari ta'mirlandi, ekspozitsiyalari tubdan yangilanib, boyitildi. Zamonaviy muzeylar mazmuni, asrlar davomida ijtimoiy axborotni to'plash va muhofaza qilish, muzey ashyolari vositasida bilim, an'ana, tasavvur va hissiyotlarni o'zlashtirish va yangi avlodga uzatish muammolari e'tiborni o'ziga jalb etmoqda. Muzeylardagi ilmiy tadqiqotlar natijalari kolleksiya, ekspozitsiyalarni konservatsiyalash, ta'mirlash, saqlash, muhofaza qilish, tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish, shuningdek, muzey faoliyatining boshqa turlari darajasini aniqlaydi. Respublika tarixiy muzeylarida saqlanayotgan eng boy jamg'arma to'plamlari: arxeologiya, etnografiya, numizmatika, moddiy va ma'naviy madaniyat tarixi, harbiy tarix epigrafika kabi fanlardagi tadqiqotlar uchun ulkan baza hisoblanadi.

Zero, tarixiy muzeylardagi ilmiy tadqiqot faoliyati badiiy va axloqiy qiymatga ega yangi tarixiy ma'lumotlar olish manbai sifatida muzey ashyolarini o'rganish yo'li bilan amalga oshiriladi va vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda yordam beradi.

Bu borada tarixiy muzey binosiga tashkiliy jihatdan qo'yiladigan talablar quyidagilar<sup>26</sup>:

1. Tarixiy madaniyat yodgorliklari, kolleksiyalar saqlanishga sharoitlar yaratilganligi. Muzey binosi mustaxkam bo'lishi, joylashgan eridagi ob-xavo sharoitlari moslashtirilgan bo'lishi zarur. Kolleksiyalar saqlash uchun xonalarda maxsus mikroiklim sharoitlari (xavo namligi, yoruglik, biologik sharoitlar), talon-taroj etish, vandamizm aktlari yong'indan muhofaza etuvchi texnik tizim mavjud bo'lishi kerak.

2. Ilmiy-ma'rifiy tashkilot sifatida faoliyat yuritish uchun sharoitlar ta'minlanish. Buning uchun, albatta, namoyish etish, rekreatsion va xizmat ko'rsatish bo'limlari maydoni to'g'ri belgilanganligi ahamiyatli. Ma'ruzalar va

---

<sup>25</sup> [www.fikr.uz](http://www.fikr.uz) "Muzeylarning dolzarb masalalari" maqolasidan

<sup>26</sup> T.Abdullayev "Muzeyshunoslik va Arxivshunoslik" 73-bet Toshkent 2008-y



boshqa ommaviy tadbirlar uchun xonalar bo'lishi, tashrif buyuruvchilar uchun maqbul sharoitlar yaratilishi samaralidir.

3. Muzeida ilmiy izlanish faoliyati yo'lga qo'yilganligi. Buning majburiy sharti kutubxona, ilmiy xodimlar uchun xonalar, nashriyot mavjudligi, kolleksiyalar yuzasidan izlanish mumkinligi.

4. Bino maydonining namoyish etilayotgan va saqlanayotgan kolleksiyalar xajmiga mosligi.

Yuqoridagi talablar asosida muzeylar faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Respublikamiz mustaqillikga erishgandan so'ng tabiiy, hamda madaniy-tarixiy yodgorliklarni, milliy merosni asrab-avaylashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada mavjud turistik resurslarni yaxshi holatda kelajak avlodga etkazish, ulardan turizm maqsadida samarali foydalanish, ulardan olinadigan iqtisodiy samaradorlikka bog'liq. Bu esa, viloyatdagi arxitektura yodgorliklaridan, arxeologik topilmalardan turizm sohasida oqilona foydalanishning tashkiliy, huquqiy, hamda me'yoriy asoslari yaratilishi juda muhimdir. Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi munosabati bilan xizmatlarning sifati va nomenklaturasiga, turizm - ekskursiya xizmatlarini ko'rsatishning turli xil shakl va usullariga qo'yiladigan yangi talablar ilgari surilmoqda. Bu jihatdan turizmning moddiy-texnik bazasini tashkil qilish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Bu jarayonga sarmoya salohiyatidan ikki yo'nalishda foydalanilganda amalga oshirish mumkin bo'ladi:

Birinchi yo'nalish, turizm-ekskursiya xizmatini sifati va hajmini hozirda mavjud bo'lgan moddiy-texnik baza asosida oshirishni ko'zda tutadi.

Ikkinchi yo'nalish, moddiy bazani yanada rivojlantirishni, turizm muassasalari tarmog'ini kengaytirishni va qo'shimcha turizm resurslarini o'zlashtirishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston ulkan sayyohlik saloxiyatiga ega bo'lib, mamlakatimiz xududida shakllangan va rivojlangan eng qadimiy sivilizatsiya va madaniyatlar, koyatoshlardagi yozuvlar va ierogliflarni, noyob tarixiy obidalar, moddiy

madaniyat va me'morlikning ulug'vor xamda betakror namunalari muxim urin tutadi. Ayni paytda ularni Yaponiya, Fransiya, Germaniya va boshqa davlatlarning ko'plab olim va mutaxassisleri o'rganayotganliklari xam bejiz emas. Shu bilan birga, uzining jozibasi va tarovati bilan dunyodagi eng yaxshi dam olish va sayohat maskanlaridan qolishmaydigan go'zal tabiatimizning boyligi va xilma-xilligini xam bu boradagi eng katta imkoniyatlarimiz mavjudligidan dalolat beradi. Bularning barchasi mamlakatimizni jahon turizmi markazlaridan biriga aylantirishi mumkin.

Shu o'rinda, O'zbekistonda xalqaro turizm soxani rivojlantirishning ayrim kursatkichlariga to'xtalib o'tish joizdir. Mamlakatimizga 2013 yilda dunyoning 70 dan ortik davlatidan sayyoxlar tashrif buyurdi va ularning yillik soni 2 milliondan oshdi. Utgan ikki yil mobaynida bu kursatkich 43 foizga usdi, joriy yilning birinchi yarmida esa 1 milliondan ortik chet ellik sayyox yurtimizga tashrif buyurdi. 2013 yilda sayyoxlik xizmatlari eksporti xajmi 615 million dollardan ziyodni tashkil etdi. Bugungi kunda turizm soxasida 200 mingdan ortik kishi mexnat kilmokda, bu tarmokning mamlakatimiz yalpi ichki maxsulotidagi ulushi 2 foizdan oshdi.

O'zbekistonda 550 ta sayyoxlik kompaniyasi - turoperatorlari faoliyat yuritmokda, mamlakatimizdagi tarixiy ob'ektlar, arxitektura va shaxarsozlik obidalarining aksariyatini qamrab olgan 110 ta xalqaro sayyoxlik yo'nalishi bo'yicha xizmat ko'rsatilmoqda. Bu yo'nalishlarning 65 tasi tarixiy-madaniy meros ob'ektlari, 30 tasi tabiiy-rekreatsion, 15 tasi sog'lomlashtirish turizmi elementlarini o'z ichiga olgan ekologik yo'nalishlardir<sup>27</sup>.

Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizdagi asosiy turistik yo'nalishlar tarixiy ob'ektlar, arxitektura va shaxarsozlik obidalarining aksariyatini qamrab oladi. Mintaqamiz hududida ham tarixiy muzeylar turistik yo'nalishlarning asosi hisoblanadi.


---

<sup>27</sup>. Uzbekistan Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Jahon sayyohlik tashkiloti ijroiya kengashi 99-sessiyasining ochilish marosimidagi nutki, <http://www.uza.uz>. Samarqand 2014

O'zbekistonning Buyuk Ipak yo'li chorraxasida joylashgani bu yerda turizm soxdsini keng rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston turizm sohasida sezilarli yutuqlarga erishdi, buning samarasida 2013 yilda ushbu saxovatli zaminga 2 milliarddan ziyod sayyoh keldi. Bu 2010 yilgi ko'rsatkichdan ikki barobar ko'pdir<sup>28</sup> .

Viloyatimizda ham so'nggi yillarda turizm sohasida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Buni Viloyatimizda sayyohlik xizmatlari eksporti xajmining yuqori sur'atlar bilan o'sish tendensiyasiga ega ekanligi ko'rsatib turibdi.. Buni quyidagi diagramma orqali ko'rish mumkin.

### 1.3.1- diagramma



Manba: Xorazm viloyat Davlat Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Milliy iqtisodiyotda xalqaro turizmni rivojlantirishning asosiy maqsadlarini quyidagilarda yaqqol ko'rishimiz mumkin:

1. Iqtisodiy o'sish, katta miqdordagi tovarlar va sifatli xizmatlar ishlab chiqarishni, shuningdek, aholi turmush tarzining yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

2. Xalqaro turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi

---

<sup>28</sup> BMT jahon sayyohlik tashkiloti bosh kotibi Taleb Rifaining YuNVTO ijroiya kengashi 99-sessiyasining ochilish marosimidagi nutki, <http://www.uza.uz>. Samarqand 2014

resurslardan foydalanishda minimal xarajatlarni sarflagan holda maksimum foydaga ega bo'lishda namoyon bo'ladi.

3. Aholining madaniyati va ma'lumoti darajasini oshirish, respublikaning turli mintakalarida jahon sivilizatsiyasi, madaniyati va san'ati bilan tanishtirish.

4. Turli xil turistik xizmatlar kursatish yuli bilan o'zaro madaniy - tarixiy va milliy qadriyatlarni ayirboshlash.

5. Sifatli asosiy va qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish, ularning sifatini jahon standartlariga etkazish.

Jahonda va jahonning ko'plab mamlakatlarida turizmning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda tutgan ro'li o'sib borayotgan bir paytda, respublikamizdagi turistik imkoniyatlar bilan xorijlik sarmoyadorlarni tanishtirish va ikki tomonlama foydali shartnomalar tuzish, chet el sarmoyasini jalb qilish uchun barcha zaruriy imkoniyatlarni ishga solish, mintakalarning uziga xos madaniyati, betakror me'morlik namunalari, go'zal va so'lim go'shalarini, tabiatimizning boyligi va xilma-xilligining internetdagi brendlarini yaratish, turistik xizmatlar turlarini kengaytirish orqali istiqbolda mamlakatimiz turizm soxasini jadal rivojlantirish va yangi sifat bosqichiga ko'tarish muhim ahamiyatga ega.

Aytish joizki, O'zbekiston hukumati tomonidan xizmatlar sohasini, shu jumladan, turizm tarmog'ini kengaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, ushbu soha mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Mazkur tarmoqni mamlakatimiz iqtisodiy majmuining muhim tarkibiy qismiga aylantirish yo'lida muayyan shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi, aholi faravonligining o'sishi, valyuta va soliq tushumlarining ko'payishiga sezilarli hissa qo'shmoqda<sup>29</sup>.

---

<sup>29</sup> "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" 1/2014 "Turizm istiqbollari" maqolasidan 11-bet

## **Xulosa**

Mustaqillik yillarida fan, san'at va madaniyatni ravnaq topishi uchun barcha shart-sharoitlarni vujudga keltirildi. O'zbek xalqining moddiy-ma'naviy yodgorliklarini saqlab qolib, yangi muzeylar tashkil etish to'g'risida alohida g'amxo'rlik ko'rsatildi. Xalqimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vositalari orasida muzeylar alohida o'rin tutadi. Muzeylar xalqlarni tabiat yodgorliklari, madaniyat va san'at tarixi bilan tanishtirish bilan birga o'tmish asrlar hamda bugungi kun ma'naviy boyliklarini o'rganadi va kelgusi avlodlar uchun saqlaydi. Respublikamiz muzeylari bugungi kunda juda katta ma'naviy-moddiy boyligimiz hisoblanadi. O'zbekiston mintaqalarida, xususan Xorazm viloyatida turizm resurslari salohiyatini yuqoriligi, ya'ni bu yerda madaniy – tarixiy yodgorliklarning mavjudligi, boy tarixiy merosi, diniy, ekologik, ilmiy, hamda Xorazmning o'ziga xos an'analari va boshqa hislatlari turizmni rivojlanishini zamon talablari asosida yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Ayniqsa madaniy – tarixiy turistik resurslar salohiyatidan samarali foydalanish, iqtisodiy jarayonning faol kechishiga sababchi bo'lib, uning imkoniyatlari bu mintaqada turizmni rivojlantirish uchun asos bo'ladi.

## **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

### **Huquqiy- narmativ hujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1995 yil 2 iyundagi PF - 1162
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1998-yil 12-yanvardagi PF-1913
3. O'zbekiston Vazirlar Maxkamasining 1998-yil 5-martdagi qarori
4. Vazirlar mahkamasining 2008 yil 31 oktabrdagi №237–sonli qarori “Xalq so‘zi” 2008 y
5. Turizm to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘zbekistonning yangi qonunlari.-T.: Adolat, 2000-y
6. “Buyuk Ipak yo‘liini qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada Xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli Farmoni. // “Xalq so‘zi”, 1995 yil 3 iyun.

### **Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:**

7. Abdullayev “Muzeyshunoslik va Arxivshunoslik” Toshkent 2008-y
8. „, Muzey -xalq tarixi ko‘zgusi” Toshkent 20011-y
9. “Turizm asoslari” N.Tuxliev 2008y
10. Tuxliev N.T., Taksanov A. Ekonomika bolshogo turizma. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001, b.124

### **Statistik to‘plam va ma’lumotlari**

11. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi.
12. “O‘zbekturizm” MK yillik hisobotlari
13. Xiva “Ichon-Qal’a” Davlat muzey qo‘riqxonasi xisobotidan
14. Statistika boshqarmasi ma’lumotlari
15. Madaniyat va sport ishlari boshqarmasi ma’lumotlari

### **INTERNET SAYTLARI**

16. [www.uz.mcs.uz](http://www.uz.mcs.uz)
17. [www.UzReport.uz](http://www.UzReport.uz)